

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUXTAROVA AZIZA ERKINOVNA

**TALABALARDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI
RIVOJLANТИРISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
психологических наук (DSc)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of
Psychological Sciences (DSc)**

Muxtarova Aziza Erkinovna

Talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	3
---	---

Мухтарова Азиза Эркиновна

Педагогико-психологические особенности развития рефлексивных способностей у студентов.....	33
--	----

Muxtarova Aziza Erkinovna

Pedagogical and psychological features of the development of reflexive abilities in students.....	63
---	----

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....	67
------------------------------	----

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUXTAROVA AZIZA ERKINOVNA

**TALABALARDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI
RIVOJLANТИРISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/P165 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
Psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umarov Baxriddin Mingboyevich
Psixologiya fanlari doktori, professor

Juraev Baxrom

Psixologiya fanlari doktori, dotsent

Qabulov Qosimboy Pirjonovich
Psixologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «____» _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda refleksiyani aqliy jarayonlar sifatida kognitiv, tartibga solish va kommunikativ xarakterdagи jarayonlarning barcha xilma-xilligini sintez qilish, shuningdek, shaxsning o‘zini va tashqi dunyonи to‘laqonli anglay olmasligi, o‘z imkoniyat va qobiliyatlarini adekvat baholamasligi tufayli jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega emasligi, jamiyatdan begonalashuvi kabi muammolar dolzarblashib bormoqda. Bu borada Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda shaxslarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlardagi buzilishlar, o‘zini o‘zi nazorat qila olmaslik, o‘z-o‘zini boshqara olmaslik, yoshlar o‘rtasida suitsidial xulq sodir etilishining keskin oshishi, shaxslararo munosabatlardagi aggressivlik holati, inson ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlar, faoliyat samaradorligi keskin darajada pasayib ketishi shaxsda refleksivlik xususiyati yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liqligi aniqlangan¹. Bunday salbiy tendensiyalar shaxs psixologik taraqqiyotini ta’minlashda refleksivlikni rivojlantirish muammosini dolzarblashishi va taraqqiyot uchun empirik tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonning ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida refleksiyani namayon ettirish qobiliyati sifatida va uning o‘ziga xos ifodaviy darajaga egaligi, psixologik jihatdan individual xususiyat sifatida aks ettishi, shuningdek, nafaqat shaxsning ongni ixtiyoriy ravishda o‘ziga qarata olish qobiliyati sifatida, balki, faoliyat va shaxsning rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi sifatida tadqiq qilinmoqda. Refleksiya, refleksivlikni rivojlantirish, shaxs faoliyatining motivatsion ta’siri, shaxslararo munosabatlarda va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishda refleksiv jarayonlarni o‘rganishning o‘ziga xosligi, o‘zini o‘zi tushunish va o‘zini o‘zi anglashning mexanizmlari, refleksiv qonuniyatları borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda². Bu borada, shaxsning refleksiv qobiliyatları, o‘zini va tashqi dunyonı anglash, o‘z imkoniyatlarını adekvat baholash, o‘zini o‘zi nazorat qilish orqali tarbiyalash va boshqarish bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi-yillarida «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatı shakllantirilishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida zararli, ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash»³ vazifalariga asoslanib, shaxsda refleksivlik xususiyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratilgan.

¹ <https://www.kon-ferenc.ru>

² <http://festival.1september.ru/articles/553626/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sон «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» <http://lex.uz/docs/3107036>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60сон, 2017-yil 5-iyuldagи «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» PF-5106-сон, 2020-yil 30-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6017-сон, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-сон Farmonlar, 2018-yil 14-avgustdagи PQ-3907-сон «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-сон, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 son Qarorlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 472-сон qarori va boshqa me’yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantrish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴.

Shaxsda refleksivlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta’lim tashkilotlari va ilmiy markazlarida, jumladan: Chapel Xilldagи Shimoliy Karolina universiteti (AQSh), Notre Dame Merilend universiteti formatsiya maktabi (AQSh), AQSh milliy universiteti (AQSh), Princeton universiteti (AQSh), Yevrik universiteti (Buyuk Britaniya), Maks Plank nomidagi Inson miyasi va kognitiv fanlar instituti (Germaniya), Edit Kovan universiteti (Avstraliya), Ceul milliy universiteti (Koreya), Janubi-G‘arbiy universitet (Xitoy), Chulalongkorn universiteti (Tailand), Tehron universiteti (Eron), Moskva davlat pedagogika instituti (Rossiya Federatsiyasi), Yaroslavl davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Fundamental tadqiqotlar Fondi (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Fanlar Akademiyasining Psixologiya instituti (Rossiya Federatsiyasi) da olib borilmoqda.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi. <https://www.northcarolina.edu/>, <https://www.ndm.edu/>, <https://www.stanford.edu/>, <http://www.calstatela.edu/>, <https://www.purdue.edu/>, <https://www.iastate.edu/>, <https://umich.edu/>, <https://www.haifa.ac.il/index.php/en/>, <http://eng.ujs.edu.cn/>, <https://www.uq.edu.au/>, <https://www.universiteitleiden.nl/en/>, <https://ut.ac.ir/en/>, <https://www.nu.edu/>, <https://www.herzen.spb.ru>, www.msu.ru, <https://lk.pspu.ru>, lk.pspu.ru (<https://lk.pspu.ru/>), <https://tn.university> va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

Jahonda shaxsda refleksivlik rivojlanishini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarga asoslanib, quyidagi ilmiy natijalar olingan: o‘zini o‘zi baholash va o‘zini o‘zi refleksiyalash psixologlar uchun asosiy kompetensiya va kasbiy tayyorgarlikning asosi ekanligi aniqlangan (Chapel Xilddagi Shimoliy Karolina universiteti, AQSh); talabalik davrida refleksivlik xususiyatini rivojlantirishga emotsiyal intellekt darajasini oshirishga qaratilgan psixokorreksion dasturlar asos sifatida yaratilgan (Notre Dame Merilend universiteti formatsiya maktabi, AQSh); shaxsning o‘zini - o‘zi anglashdagi o‘zgarishlari ilmiy tadqiq etilgan (AQSh milliy universiteti, AQSh); o‘smirlik davrida ota-onalar va o‘zini o‘zi anglash o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi o‘zgarishlar longityud yondashuv yordamida aniqlangan (Prinston universiteti, AQSh); shaxs xarakteridagi cheklarlar va refleksiv guruhralar munosabatlari o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik uyg‘unlikning ta’minlanishi usullari takomillashtirilgan (Evrik universiteti, Buyuk Britaniya); refleksivlik shaxsning o‘tmish xotiralaridan ko‘ra, kelajakka nazar tashlash bilan ko‘proq bog‘liqligi empirik tasdiqlangan (Maks Plank nomidagi Inson miyasi va kognitiv fanlar instituti, Germaniya); talabalarda o‘zi haqida qayg‘urish mexanizmlari tadqiq etilgan (Edit Kovan universiteti, Avstraliya); ta’lim muhitiga nisbatan refleksiyani shakllantirishda psixologik bilimlarning ta’siri aniqlangan (Seul milliy universiteti, Koreya); shaxsdagi refleksivlik va o‘zini - o‘zi anglash xususiyatlarining neyrobiologik asoslari tadqiq etilgan (Janubi-G‘arbiy universitet, Xitoy); o‘quv faoliyatida munozarali darslarni tashkil etish talabalardagi refleksivlikning rivojlanishiga ta’sir qilishi aniqlangan (Chulalongkorn universiteti, Tailand); o‘zini o‘zi refleksiya qilish stress bilan sezilarli salbiy aloqadorlikka ega ekanligi qayd etilgan (Tehron universiteti, Eron); shaxsda refleksivlikni rivojlantirishning psixologik mezonlari aniqlangan (Moskva davlat pedagogika instituti, Rossiya Federatsiyasi); shaxs rivojlanishida refleksiya darajasini aniqlashning psixodiagnostika metodikalari yaratilgan (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi); zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyati samaradorligini ta’minlashda refleksivlikka aloqador shaxslilik komponentlarining ahamiyati aniqlangan (Rossiya Fundamental tadqiqotlar Fondi, Rossiya Federatsiyasi); o‘quvchi shaxsi shakllanishida refleksianing ta’siri tadqiq qilingan (Rossiya Fanlar Akademiyasining Psixologiya instituti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahonda refleksiya, refleksivlik muammolari bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, ta’lim muhitiga nisbatan refleksivlikni shakllantirish, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyati samaradorligini ta’minlashda refleksivlikka aloqador shaxslilik komponentlarining ta’siri, shaxsda refleksivlik shakllanganligini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik vositalar ishlab chiqilganligi va amaliyotga tadbiq etilishi, turli yosh davrlarida refleksivlikning komponentlarini ilmiy o‘rganilayotganligi shular jumlasidandir. Bu borada shaxsning o‘zini o‘zi anglashining taraqqiy etishi, o‘zini o‘zi refleksiyalash, o‘zini o‘zi baholash, emotsiyal intellekt, shaxs shakllanishi asosida uning individual imkoniyatlarini yaxshilash, o‘quv, kasbiy, kommunikativ, intellektual sohalarda refleksivlikni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash masalalariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Sharq allomalarining pedagogik-psixologik qarashlarida, mamlakatimiz

psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, Sh.V.Azizova, B.G.Gappirov, M.G.Davletshin, E.M.Muxtorov, Z.T. Nishonova, N.T.Norqulova, X.A.Ruxiyeva, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, N.I.Xalilova, Y.A.Xaxlina, O‘.B.Shamsiyev, E.G‘.G‘oziyev va boshqalarning⁵ ilmiy ishlarida refleksiya, refleksivlik masalalarini o‘zini o‘zi nazorat qilish, shaxsda o‘zini o‘zi boshqarishning fikrlash faoliyatiga ta’siri, o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish, oilada bola shaxsida o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishi, milliy o‘zlikni anglash masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlarodan N.G.Alekseev, V.V.Davidov, V.A.Ganzen, V.A.Lefevr, A.V.Karpov, M.A.Rozov, S.L.Rubinshteyn, I.N.Semenov, S.Yu.Stepanov, G.P.Shchedrovskiy, Y.N.Kulyutkin, Y.A.Ponomaryov, V.V.Zankov va boshqalar⁶ refleksiv o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi tushunish, hamkorlikdagi faoliyat, kommunikatsiya muammolari, tafakkur jarayoni, refleksiv bilimlar, o‘z hayot faoliyatini anglash, refleksiv fikrlash faoliyati nuqtai nazaridan tadqiqotlar olib borishgan. Shaxsda refleksivlikning rivojlanishi, yondosh psixologik hodisalar, bilish jarayoni, shaxs xususiyati, faoliyat sohalariga ustuvor ahamiyat berilgan bo‘lishiga qaramay, refleksivlikning shaxs psixologik taraqqiyotini ta’minlashdagi omil ekanligi masalasi kompleks tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

Xorij tadqiqotchilaridan L.Bartlett, A.Buzeman, D.Derner, Z.Freyd, A.M.Grant, R.Holland, T.Pyszczynski, J.Piaget, R.A.Wicklund va boshqalar⁷ refleksivlik

⁵ Б.С.Абдуллаева, М.Б.Уразова, Н.Х.Вохидова. Общая педагогика. Учебное пособие. «Sano-standart», Ташкент – 2017.С.-35; Azizova Sh.V. Yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyatini boshqarishning psixologik xususiyatlari psixologiya f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi Toshkent – 2008 yil 145 – b; Gappirov B.T. Talabalarда axloqiy o‘z-o‘zini anglashning o‘quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti psixologiya fanlari nomzodi, ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya 1999 y. 133 b; Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent: TDPU, 2008, 81 b; Muxtorov E.M. O’smirlar guruhida o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Psixol. f. n.dis...avtoref – Т.: TDPU, 2009. – 24 b; Nishonova Z.T., Ergashev P.S. «Oliy maktab psixologiyasi», Т., 2012; Norkulova N.T. Affiliatsiya motivi - talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 2016. - 350 b; Рухиева Х.А. Психологические особенности самоуправления учебной деятельностью студентов. Автореф. дис....канд. психол. наук. Т.: ТГПИ, 2003. – 22 с; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. дис...д. психол. наук. – Т.: НУУз, 2005. – 38 с; Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности: Автореф. дис...д. психол. наук. – Т.: НҮҮз, 2001.–41 с; Xalilova N.I. Shaxs psixologik taraqqiyotini ta’minlashda refleksivlikni rivojlanirishning ilmiy asoslari va amaliy istiqbollari. Psixologiya fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 2022. - 254 b; Хахлина Э.А. Особенности рефлексии как фактор успешности социализации в юношеском возрасте Диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук Ташкент-2012 148с; Shamsiev O‘.B. Oilada maktabgacha yoshdagι bola shaxssi o‘zini-o‘zi anglashining ijtimoiy-psixologik omillari: Psixol.fanlar nomzodi... diss.: – Т., 2010 – 127 b; G‘oziev E.G. “Umumiyy psixologiya” Toshkent. 2002. 238-245.

⁶Алексеев Н. Г. Рефлексия и формирование способа решения задач. М. 2002; Давидов Т.О., Голубева Э.А. Психология мотивации достижения (текст) Г.О.Гордиева, -М: Смысл Издательский центр “Академия”, 2006-336; Ганцен, В.А. Системные описания в психологии / В.А. Ганцен. – Л.:Изд-во Ленингр. ун-та, 2004. – 176 с; Лефевр, В. А. Рефлексия. / В. А. Лефевр - М.: Когито-центр, 2003. - 496 с; Карпов А.В. Ковалев Г.А. Психология рефлексивных механизмов деятельности. М.: ИП РАН, 2004. С.55-58; Рубинштейн С. Л. Ланге Н.Н. (Некролог) // Вопросы психологии. 1979. № 5. С. 141-144; Семенов, И.Н. Феноменология рефлексии и направления ее изучения в современной зарубежной психологии / И.Н.Семенов, В.Ю. Дударева // Психология. Журнал Высшей школы экономики - 2008,- Т.5.- №1- С. 101-120; Степанов, С.Ю. Проблема формирования типов рефлексии в решении творческих задач / С.Ю.Степанов, И.Н.Семенов // Вопросы психологии. - 1982. - № 1.-С. 99-104; Щедровицкий Г.П. Коммуникация деятельность, рефлексия // Исследования рече-мысли и рефлексии. Алма – Ата 1979. С 138-154; Кулюткин, Ю.Н. Рефлексивная регуляция мыслительных действий; Пономарева (Пантелеева) В. В. Психодиагностика рефлексивности как метод социально-психологического исследования управлеченческой деятельности: Дисс. ... канд. психол. наук: 19.00.01, 19.00.05: Ярославль, 2000, 188 сие исследования интеллектуальной деятельности. – М., 1979. – С. 22-28; Знаков, В.В. Духовность человека в зеркале психологического знания и религиозной веры Текст. /В.В. Знаков // Вопросы психологии, 2008, №3.1. С.104-114.

⁷ Bartlett, L. Teacher development through reflective teaching. In J. C. Richards and D. Nunan (Eds.) Second language teacher education. Cambridge: Cambridge University Press. 1990; Буземан А. Психологический тренинг. СПб., 2006. С. 119-129; Фрейд, З. По ту сторону удовольствия [Текст] / З. Фрейд. - М.: Прогресс, 1992. - 569 с; Grant, A. M. Rethinking psychological mindedness: metacognition, self-reflection, and insight / A. M. Grant // Behaviour Change. - 2001. - Vol. 18. - P. 8-17; Holland R. Reflexivity / R.Holland // Human Relations. – 2000. –Vol. 52. – № 4. – P. 463–483; Pyszczynski, T. The Role of Self-Focused Attention in the Development, Maintenance, and Exacerbation of Depression / T. Pyszczynski, J. Greenberg // K. Yardley, T. Honess (Eds.). Self

muammosini keng doirada tadqiq etgan bo'lsalar-da, lekin shaxs taraqqiyotida refleksivlikning o'rni masalalari tadqiqotchilar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliv ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923121-raqamli «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020-yy.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarda refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish orqali refleksivlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning namoyon bo'lishining kasbiy shakllanish bilan bog'liq dinamik xususiyatlarini tahlil qilish;

talabalarning refleksivlik qobiliyatini rivojlanishida uning komponentlarini o'zaro aloqadorlik jihatlarini asoslash;

talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishiga shaxs xulq-atvorida o'zini-o'zi boshqarish xususiyatining ta'sirini tadqiq etish;

talabalardagi ustuvor faoliyat uslubining refleksiv xususiyatlarni rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish;

talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun individual refleksiyaning korreksion-adaptiv ta'sir etish zaruratinini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti talabalarda refleksiv qibiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'lib, tadqiqotda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidan 210 nafar, Buxoro davlat universitetidan 190 nafar hamda Qarshi davlat universitetidan 150 nafar talabalari, jami 580 nafar respondent jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarda refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, A.V.Karpova tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsdagi refleksivlikni o'rganish metodikasi», S.R.Panteleyev va V.V.Stolin tomonidan «Subyektiv lokal nazorat», V.I.Morosanovaning "Xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish uslubi", M.Kubishkinaning «MAS» so'rovnomasasi, P.Xoni va A.Mamfordning "Faoliyat uslublari" so'rovnomasasi hamda "Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o'rganish psixologik so'rovnomasasi" hammualliflik (B.S.Abdullayeva; A.E.Muxtarova) so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

and Identity: Psychosocial Perspectives. - Chichester, England: Wiley, 1987; Piaget, J. Sociological Studies. London: Routledge. (1995); Wicklund R.A., Prey D. Self-awareness theory: when the self makes a difference. – In: The Self in Social psychology. Ed. by D.M.Wegner, R.R.Vallacher. N.Y., 2000. 89.

talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslararo muloqot, o‘z-o‘zini boshqarishning refleksiv jihatlari hamda yigitlarda kommunikativ, qiz bolalarda esa autorefleksiyaning ustuvorligi tufayli kasbiy shakllanish bilan bog‘liq dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillangan;

talabalarning refleksivlik qobiliyatini rivojlanishi auto va sotsiorefleksiya, boshqalar bilan muloqot hamda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatlarini metokognitiv mexanizm sifatida differentsial namoyon bo‘lishi sababli o‘quv faoliyati bilan bog‘liq retrospektiv, real, prospektiv refleksiyaning darajaviy ifodalanishiga integrativ kechishi asoslangan;

talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi autorefleksiyaning rejalahtirish, mustaqillik, sotsiorefleksiyaning moslashuvchanlik, boshqalar bilan muloqotning modellashtirish, moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarishning modellashtirish, natijalarni baholash sifatlarini iroda kuchining sub’ektiv lokolizatsiyasi ta’sirida ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli shaxs xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatining shakllanishiga identiv ekanligi asoslangan;

talabalardagi ustuvor faoliyat uslubining refleksiv xususiyatlarni rivojlanishiga ta’siri natijasida faollik boshqalar bilan muloqot, tahlilchi autorefleksiya, nazariyotchi autorefleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish, pragmatik tip sotsiorefleksiya bilan integrativ namoyon bo‘lishi tufayli o‘z-o‘zini anglash xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatining komponentlari bilan interkorrelyatsion bog‘lanishlarga ega ekanligi isbotlangan;

talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun individual refleksiyaning verbal va noverbal ekspressiyalarni anglash, ijtimoiy-persepsiya, empatiya, identifikatsiya xususiyatlarining shakllanganlik darajsiga bog‘liq ravishda ijtimoiy refleksiyaga uyg‘un holda namoyon bo‘lishi muhimligi tufayli kognitiv (o‘z-o‘zini tavsiflash), hissiy (o‘ziga emotsiyal munosabat), operativ (o‘z-o‘zini boshqarish) sohalariga korreksion-adaptiv ta’sir etish zarurati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalik davrida refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari takomillashtirilgan;

talabalarda refleksiv qobiliyatning ustuvor strategiyasini aniqlash, uning darajasini baholash metodikasi ishlab chiqilgan;

talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik-psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

refleksivlikni rivojlantirish uchun shaxsga psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiluvchi usullar va amaliy materiallar dasturiy shaklda taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma’lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilgani; aniqlangan ko‘rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilgani; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilingani, natijalar statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil vositasida qayta ishlangani; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy

etilgani, olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, pedagogika va psixologiya yo‘nalishlarida shaxsda refleksivlikni rivojlantirishning ustuvor strategiyalarini aniqlanganligi, o‘rganilganligi, takomillashtirilganligi va tadqiq etilgan muammoga oid ilmiy tushuncha, tasavvurlarni kengaytirishi, shuningdek, refleksivlik jarayonini aniqlashga xizmat qiluvchi muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyasizlikdan qochish, tafakkur tipi, psixologik olam mustaqilligi, muloqotda o‘zini o‘zi boshqarish, shaxsni idrok qilish mexanizmlari, o‘zini o‘zi hurmat qilish, ijtimoiy intellekt, emotsiyalardagi differensiallik kabi psixologik usullarni mohiyat va tushunchasi ohib berilganligi, shaxsda refleksivlikni rivojlantirishga doir ilmiy xulosalardan rivojlanish va shaxs psixologiyasi yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy, empirik ma’lumotlardan shaxsda refleksivlikni rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g‘oyalar shaxs rivojlanishini konseptual nazariyasini shakllanishiga xizmat qilishi, nazariy umumlashma va tahlillarda shaxsda refleksivlik rivojlanishini tekshirishga mo‘ljallagan metodikalardan foydalanishda, turli yosh davrlarida olib boriladigan psixologik profilaktika va psixologik korreksiya yo‘nalishini aniqlashtirishda, shuningdek, «Psixologiya nazariyasi va tarixi», «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya», «Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya», «Psixologik trening asoslari», «Psixologik xizmat. Psixokorreksiya», «Umumiyl psixologiya», «Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya», «Umumiyl psixodiagnostika», «Sotsial psixologik trening» fanlaridan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslararo muloqot, o‘z-o‘zini boshqarishning refleksiv jihatlari hamda yigitlarda kommunikativ, qiz bolalarda esa autorefleksiyaning ustuvorligi tufayli kasbiy shakllanish bilan bog‘liq dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillanganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldaggi PM113-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdaggi PM113a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada amaliyotchi psixologlarda refleksiv qobiliyatlarni kasbiy shakllanishiga ta’sirini dalillash imkoniyati yaratilgan;

talabalarning refleksivlik qobiliyatini rivojlanishi auto va sotsiorefleksiya, boshqalar bilan muloqot hamda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatlarini metokognitiv mexanizm sifatida differensial namoyon bo‘lishi sababli o‘quv faoliyati bilan bog‘liq retrospektiv, real, prospektiv refleksiyaning darajaviy ifodalanishiga integrativ kechishi asoslanganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti

qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagagi PM113-sonli buyrug‘i bilan «Ontogenetik psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagagi PM113a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalar refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘quv faoliyatni samaradorligiga erishilgan;

talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi autorefleksiyaning rejalshtirish, mustaqillik, sotsiarefleksiyaning moslashuvchanlik, boshqalar bilan muloqotning modellashtirish, moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarishning modellashtirish, natijalarni baholash sifatlarini iroda kuchining subyektiv lokalizatsiyasi ta’sirida ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli shaxs xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatining shakllanishiga identiv ekanligi asoslanganligiga doir ma’lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagagi PM113-sonli buyrug‘i bilan «Ontogenetik psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagagi PM113a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada amaliyotchi psixologlarda refleksiv qobiliylarni rivojlanishining shaxs xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarishga bog‘liqlik jihatlari tahlil qilish imkoniyati yaratilgan.

talabalardagi ustuvor faoliyat uslubining refleksiv xususiyatlarni rivojlanishiga ta’siri natijasida faollik boshqalar bilan muloqot, tahlilchi autorefleksiya, nazariyotchi autorefleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish, pragmatik tip sotsiorefleksiya bilan integrativ namoyon bo‘lishi tufayli o‘z-o‘zini anglash xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatining komponentlari bilan interkorrelyatsion bog‘lanishlarga ega ekanligi isbotlanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagagi PM113-sonli buyrug‘i bilan «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagagi PM113a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada amaliyotchi psixologlarning psixodiagnostika hamda psixokorreksion sohasidagi amaliy ma’lumotlarini oshirishga erishilgan;

talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun individual refleksiyaning verbal va noverbal ekspressiyalarni anglash, ijtimoiy-persepsiya, empatiya, identifikatsiya xususiyatlarining shakllanganlik darajsiga bog‘liq ravishda ijtimoiy refleksiyaga uyg‘un holda namoyon bo‘lishi muhimligi tufayli kognitiv (o‘z-o‘zini tavsiflash), hissiy (o‘ziga emotSIONAL munosabat), operativ (o‘z-o‘zini boshqarish) sohalariga korreksion-adaptiv ta’sir etish zarurati dalillaganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagagi PM113-sonli buyrug‘i bilan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagagi PM113a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada amaliyotchi psixologlarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning psixokorreksion amaliy-uslubiy ta’minotni shakllantirish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami

20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan, 9 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnalda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, to‘rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 217 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e’lon qilinishi, dissertatsion tadqiqotning tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Refleksiv qobiliyatlarining psixologik xususiyatlarini o‘rganishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida refleksiya tushunchasi, refleksiv qobiliyatlar muammosining ilmiy-falsafiy tahlili, psixologik tadqiqotlarda refleksiv qobiliyatlarni o‘rganilganlik holati hamda ontogenetika refleksiv qobiliyatlarni rivojlanish xususiyatlarining tahliliy sharhi keltirilgan. Shuningdek, refleksiya va uning rivojlanishi fenomenlarining psixologik asoslari atroficha yoritilgan.

Mazkur bobda refleksiv qobiliyatlar rivojlanishi, refleksiya fenomeni ilmiy-psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida, zamonaviy psixologiyada refleksiv xususiyatlarning tahliliga oid ilmiy izlanishlar dunyoning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalari tomonidan olib borilgan izlanishlarning empirik ma’lumotlari tahlili keltirilgan.

Tadqiqotlar tahlilining ko‘rsatishicha, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini o‘zi boshqarishi, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi tushunishi, o‘zini o‘zi bilishi, o‘zini o‘zi tarbiyalashi kabi refleksiv jarayonlar muammosi Sharqning qomusiy olimlari, xorij va o‘zbek psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Xususan, refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi o‘zbek psixologlaridan B.S.Abdullayeva, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayev, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, O‘.B.Shamsiyev, N.I.Xalilova, X.A.Ruxiyeva, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar bilan bir qatorda, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari va xorij olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.B.Brushlinskiy, A.V.Karpov, M.M.Mukanov, L.S.Vigotskiy, V.V.Stolin, P.Y.Galperin, A.Buzeman, D.Derner, Z.Freyd, A.M.Grant, R.Holland, T.Pyszczynski, J.Piaget, F.Shelling hamda boshqalarning ilmiy izlanishlarida berilgan.

Ushbu bobda xorijiy davlatlarning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning metodologik va metodik asoslarini shakllantirishga doir tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Talabalarda refleksiv qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha

ilmiy izlanishlarni tahlil qilish, ilmiy manbalar talqini va tadqiqot muammosiga oid ma'lumotlar o'rganilgan.

Shuningdek, dissertatsiya tadqiqotida o'rganilishicha, so'nggi yillarda shaxsdagi refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish borasidagi izlanishlarda o'zini o'zi anglash bilan bog'liq holda shaxsning motivatsion-irodaviy sohalari, axloqiy o'zini o'zi anglash, o'quv faoliyatni boshqarish masalalariga ham urg'u beriladi. Shuningdek, tadqiqotlarda shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'z imkoniyatlarini baholay olishi hamda o'zini o'zi nazorat qila olish, boshqarish xususiyatlarining rivojlanishi jamoadagi insonlar bilan kechadigan shaxslararo munosabatlarga bog'liqligi asoslab beriladi.

Dissertatsiya ishida aniqlanishicha, refleksiya psixologiyaning ko'plab sohalarida tadqiq etilmoqda: ijtimoiy psixologiyada refleksiya guruhiy o'zaro ta'sir, shaxslararo muloqot, ijtimoiy-persepsiya, empatiya muammolari o'rganilsa, umumiyl psixologiyada shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'zini o'zi rivojlantirish masalasi, bilish jarayonlari va faoliyatni boshqarish shuningdek, qobiliyat va ixtiyoriy faollik muammolari doirasida yosh psixologiyasi uning genezisi va shakllanish bosqichlarini ko'rib chiqilmoqda.

Refleksiya psixologiyada ikki jihatdan ko'rib chiqiladi: psixologik jarayonning dominantasi- rivojlanish hisoblanadi; psixologik jarayon pedagog hamda ta'lim oluvchilarga o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratish bilan belgilanadi. Tadqiqotda refleksiya tushunchasi keltirilgan psixologik ta'riflar umumlashtirilgan holda shaxsning o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida etirof etilgan.

Refleksiya o'z-o'zini anglash jarayonini maqsadga muvofiq va anglangan bo'lishiga hamda o'z-o'zini anglash xulq-atvorda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatining komponentlari bilan interkorrelyatsion bog'lanishlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Bu esa tadqiqotda talabalardagi ustuvor faoliyat uslubining refleksiv xususiyatlarni rivojlanishiga ta'siri natijasida faollik boshqalar bilan muloqot, tahlilchi autorefleksiya, nazariyotchi autorefleksiya, o'z-o'zini boshqarish, pragmatik tip sotsiorefleksiya bilan integrativ namoyon bo'lishi tufayli o'z-o'zini anglash xulq-atvorda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatining komponentlari bilan interkorrelyatsion bog'lanishlarga ega ekanligini isbotlashga xizmat qilgan. Demak, shaxs shakllanishi o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Ayniqsa, shaxsning o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat qilish, operativ o'z-o'zini boshqarishni modellashtirish, o'zini o'zi tarbiyalashi refleksiv jarayonlarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Dissertatsyaning ikkinchi bobi «**Refleksiv qobiliyatlar va shaxs intellektual faoliyatining o'zaro bog'liqlik jihatlari**» deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda refleksiya muammosiga doir nazariy-metodologik yondashuvlar, talabalarda refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishining psixologik tavsifi va talabalarda refleksiv qobiliyatlar rivojlanishining individual-psixologik xususiyatlari kabi omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu bob o'rganilayotgan muammoni empirik jihatdan tadqiq etishga doir materiallar tahliliga bag'ishlangan. Xususan, refleksiv qobiliyat va intellektual faoliyatning integrativ xususiyatlari, refleksiv qobiliyatlar rivojlanishining alohida bilish jarayonlari taraqqiyotidagi roli, umumiyl intellektual faoliyat va refleksiv qibiliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik jihatlari, motivatsion, kognitiv, operativ, hissiy-irodaviy va kommunikativ komponentlarni rivojlantirish orqali

talabalar refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Mazkur bobda yuqoridagi psixologik muammolarni o'rganish va tadqiq qilishga mo'ljallangan refleksiv qobiliyat funksiyalari ham bayon etilgan.

Refleksiya va refleksivlik borasida olib borilgan ilmiy izlanishlardan ko'rindiki, shaxsda o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi baholash, o'z-o'zini boshqarishni modellashtirish, o'zini o'zi tarbiyalash kabi qator jarayonlarning rivojlanishi bilan ko'rsatiladi. Shuning bilan birga shaxsdagi bilish jarayonlari, emotsiyal motivatsion sohalarning taraqqiyoti refleksivlik rivojlanishining asosiy psixologik omillar hisoblanadi.

Mazkur bobda yuqoridagi ijtimoiy-psixologik muammolarni o'rganish va tadqiq qilishga mo'ljallangan metodikalar sharhi bayon etiladi. Shaxsning alohida bilish jarayonlari, xususan tafakkur, xotira, diqqat xususiyatlarini ta'lim jarayonida rivojlanishi metokognitiv mexanizmlardan hisoblanmish refleksiv qobiliyatlarning shakllanganlik darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi, talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish doirasida refleksiv qobiliyatlar va shaxs intellektual faoliyatining o'zaro bog'liqlik jihatlari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv faoliyatida o'zini o'zi bilish amalgalashiriladi. O'quv faoliyatida ta'lim oluvchi o'zini biladi, unda o'zi haqida tasavvurlar, o'zini o'zi baholash tarkib topadi natijada, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish, natijalarni baholash ko'nikmalarini shakllanadi.

Demak, talabalarda o'z-o'ziga va boshqa insonlarga yo'nalganlik o'tmishdagi faoliyatga, hozirgi faoliyatga, boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga refleksiya ijtimoiy intellektning o'zini o'zi boshqarish, empatiya, o'zini o'zi motivatsiyalash kabi komponentlari bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shu boisdan, talabalik davrida refleksiv qobiliyatlar va ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Talabalar refleksiv qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasini tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari**» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiyligi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar o'z aksini topgan. Jumladan, talabalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan omillarga bevosita aloqador bo'lgan hissiy-emotsional holatlar, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish, talabaning muayyan maqsadga erishishi, intilishlari, raqobat va tavakkalchiligi darajalarining empirik jihatdan o'rganilganlik natijalari o'z aksini topgan.

Inson psixik rivojlanishi, uning shaxs sifatida shakllanishi, o'zini o'zi anglashining, ya'ni o'zini jismoniy, ma'naviy hamda ijtimoiy mavjudot sifatida anglashining qaror topishi bilan bog'liq. O'zini o'zi anglashning rivojlanishi har bir ta'lim oluvchida o'ziga xos tarzda kechadi. O'zini - o'zi anglashning rivojlanishi shaxsning o'z xohishlari va umuman faoliyati motivlarini anglashi bilan bog'liq bo'ladi. O'z faoliyatining motivlarini anglashi, shaxsga o'zini o'zi anglashning keyingi bosqichiga o'tishga, ya'ni o'z harakatlaridan ajrata olishga yordam beradi. Dastlab

shaxs o‘zini faoliyat subyekti sifatida anglaydi. Ushbu izlanishlarga ko‘ra tadqiqotda talabalarning refleksivlik qobiliyatini rivojlanishi auto va sotsiorefleksiya, boshqalar bilan muloqot hamda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatlarini metokognitiv mexanizm sifatida differentsial namoyon bo‘lishi sababli o‘quv faoliyati bilan bog‘liq retrospektiv, real, prospektiv refleksiyaning darajaviy ifodalanishiga integrativ kechishi asoslangan.

Shuningdek, talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi autorefleksiyaning rejallashtirish, mustaqillik, sotsiorefleksiyaning moslashuvchanlik, boshqalar bilan muloqotning modellashtirish, moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarishning modellashtirish, natijalarni baholash sifatlarini iroda kuchining sub’ektiv lokolizatsiyasi ta’sirida ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli shaxs xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatining shakllanishiga identiv ekanligi asoslangan.

Tadqiqot doirasida dastlab ishlab chiqilgan “Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi” orqali olingan natijalarni tahlili quyidagi jadvalda aks ettirilgan (1-jadvalga qarang).

Talabalarda refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi kurslar kesimidagi qiyosiy tahlili natijalarida omillarda farqlar kuzatildi. Jumladan, “autorefleksiya” ($t=2,2$; $p\leq 0,05$), “sotsiorefleksiya” ($t=2,9$; $p\leq 0,05$), va “o‘zini o‘zi boshqarish” ($t=1,9$; $p\leq 0,05$) omillarda ishonchli farqlar kuzatildi. “Boshqalar bilan muloqot” ($t=0,7$; $p\leq 0,18$) omilda esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

1-jadval.

Talabalarda refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi (n=580)

Omillar	1-kurs n₁=320	3-kurs n₂=260	p
	M	M	
Autorefleksiya	1,5	2,8	0,05
Sotsiorefleksiya	1,4	2,6	0,05
Boshqalar bilan muloqot	2,8	3,1	0,18
O‘zini - o‘zi boshqarish	1,9	3,3	0,05

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Dastlabki omil “autorefleksiya” 3 kurs talabalarida yuqori natijani ko‘rsatdi. Mazkur talabalarda o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini anglash funksiyalari hamda emotsional holatlar nazorati nisbatan kuchliroq ekanligini anglatadi. “Autorefleksiya”ning 3-bosqichda yuqoriroq ko‘rsatkichga ega bo‘lishi, ularning kasbiy shakllanishidagi intellektual refleksiya bilan uzviy bog‘liq. Bunda ularning o‘z-o‘zini anglashi kasbiy o‘zlikni anglash bilan parallel xususiyatga egaligi kuzatilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, talabalardagi autorefleksiya omili ularning o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosida ham bevosita aloqadordir.

Tadqiqotda aniqlanishicha, “sotsiorefleksiya” omili bo‘yicha ham yuqori kurs talabalari ustunlik qilishdi. Bu esa boshqa insonlarni tushunish, ularning emotsiyalarini tahlil qilishga intilish, boshqa insonlarni tajribasi, e’tiqodi, xulq-atvor motivlari, xarakteri va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish kabi xususiyatlar yuqori darajada ekanligini anglatadi. “Sotsiorefleksiya” talabalarning jamiyatga o‘z bilimlari asosida kirib borishi, muloqotdagi verbal ekspressiyalarini anglashi va tushunishi, ijtimoiy-persepsiyanı anglashi bilan bog‘likdir.

O‘zini o‘zi boshqarish omili ham yuqori kurs talabalarida ustunlik qildi. Talabalarning xulq-atvorni ongli ravishda tartibga solish, faoliyatning maqsadlari, faoliyatni amalga oshirish shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan harakatlar mohiyati va dasturini tanlash kabi tarkibiy qismlar 3-bosqich talabalarida ustun ekan.

Boshqalar bilan muloqot omilida sezilarli farqlar kuzatilmadi. Boshqa kishilar bilan muloqot va faoliyat natijasida o‘zining yangi obrazlarini tuzishida namoyon bo‘ladi va xulq-atvorida ifodalanadi. Boshqa tomondan dunyo haqida adekvat bilimlarni ishlab chiqish qobiliyatları har ikkala kurs talabalarida ham o‘rtा darajani qayd etdi.

Ma’lumki shaxs shakllanishi o‘ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Ayniqsa, shaxsning o‘zini - o‘zi anglash, o‘zini - o‘zi boshqarish, o‘zini - o‘zi tarbiyalash kabi refleksiv jarayonlarni rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shu o‘rinda sinaluvchilar guruhida boshqalar bilan hamkorlik va muloqotda refleksivlikning ustuvor strategiyalari aniqlandi. Endi mazkur metodikani gender jihatdan tahlil qilamiz (2-jadval).

Talabalarning refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish so‘rovnomasni gender jihatdan qiyosiy tahlili natijalarida omillarda farqlar kuzatildi. Jumladan, “autorefleksiya” ($t=1,9$; $p\leq 0,05$), “sotsiorefleksiya” ($t=1,9$; $p\leq 0,05$), va “boshqalar bilan muloqot” ($t=2,1$; $p\leq 0,05$) omillarda ishonchli farqlar kuzatildi. “O‘zini - o‘zi boshqarish” ($t=0,6$; $p\leq 0,10$) omilida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

2-jadval.

Talabalarda refleksiv qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasining gender farqlari (n=580)

Omillar	Yigitlar n ₁ =300	Qizlar n ₂ =280	p
	M	M	
Autorefleksiya	2,2	3,1	0,05
Sotsiorefleksiya	3,4	2,1	0,05
Boshqalar bilan muloqot	3,3	2,1	0,05
O‘zini - o‘zi boshqarish	2,9	3,2	0,10

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

“Autorefleksiya” omili qizlarda yuqori natijani ko‘rsatdi. Bizningcha shaxsning emotsiyonal holatlarini adekvat idrok etish, xulq-atvorini boshqarish, o‘z holatini tahlil qilish xususiyatlarini qizlarda yuqori bo‘lishida ularga ta’sir qiladigan ijtimoiy munosabatlarning ta’siri natijasidir. Bunda tashqari qizlarda “Men” obrazini tuzish, ichki dunyosining tuzilishi va mazmunini ochishga yo‘naltirilgan subyektning o‘zini - o‘zi bilish jarayoni ham yigitlarga nisbatan yuqoriroq ekanligini aniqlandi.

“Sotsiorefleksiya” esa yigitlarda ustunlik qildi. Bu shaxsda kechadigan refleksiv jarayonlarni anglab yetish uchun avvalo, boshqa insonlarni tushuna olish, atrofdagilar bilan emotsiyonal munosabatlar tizimining qaror topishida, o‘z shaxsiga va o‘zgalarga nisbatan hurmat hissini oshishi kabi xususiyatlar qizlarga nisbatan yaxshiroq shakllanganligini anglatadi.

Boshqalar bilan muloqot omilida ham yigitlar ustunlik qilishdi. Yigitlarda ijtimoiy munosabatlarda qizlarga nisbatan faol bo‘lishi, atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqotda yaxshi suhbatdosh, tinglovchi bo‘la olish, o‘quv faoliyatidagi psixologik to‘siqlarni yenga olish hamda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari ustunlik qilishi aniqlandi. Bu talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslararo muloqot, o‘z-o‘zini boshqarishning refleksiv jihatlari hamda yigitlarda kommunikativ, qiz bolalarda esa autorefleksiyaning ustuvorligi tufayli kasbiy shakllanish bilan bog‘liq dinamik xususiyatga ega ekanligini dalillashga xizmat qildi.

So‘ngi “o‘zini o‘zi boshqarish” omilida farqlar kuzatilmadi. Har ikkala guruh respondentlarida xulq-atvori va faoliyatida tashqi va ichki o‘zaro ta’sirlarda, shaxsning faoliyat subyekti sifatidagi funksiyalarini tavsiflashda, his-tuyg‘ularini, tajribalarini va natijada xatti-harakatlarini boshqarish xususiyatlari o‘rtacha darajada ekanligini bildiradi.

Endi tadiqotimizning navbatdagi metodikasi hisoblangan A.V.Karpovning “Refleksivlikning rivojlanish darajasi” bo‘yicha dastlabki natijalar tahliliga o‘tamiz. Refleksiya shaxsning o‘zini - o‘zi anglashi bilan yaqin qo‘yiladi va o‘zining yaxlit “Men” obrazini tuzish, ichki dunyosining tuzilishi va mazmunini ochishga yo‘naltirilgan subyektning o‘zini o‘zi bilish jarayonidir. Refleksiya kognitiv jarayon sifatida inson tafakkurining tamoyili bo‘lib, shaxsiy shakl va imkoniyatlarini tushunish va anglash, uning mazmuni, metodi va bilish natijalarini tanqidiy tahlil qilishdan iborat yoki boshqacha qilib aytganda o‘z tafakkurining asosi haqida o‘ylash qobiliyatidir. Olingan ma’lumotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, umumiylis hisobda barcha respondentlardan olingan eng yuqori natija bu refleksiyaning o‘rta darajasi bo‘lib, talabalarning 240 (39,3 %) tasi ushbu darajaga mansubligi aniqlandi. Eng quyi ko‘rsatkich esa 221 (36,2 %) tani tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalardagi refleksiya darajalari nisbatan korreksion ishlarini olib borishni talab etadi.

3-jadval.

Talabalarda refleksiya darajalari namoyon bo‘lishining gender-qiyosiy ko‘rsatkichlari (n=580)

Nº	Refleksiya darajalari	Yigitlar n=300	%	Qizlar n=280	%
1.	Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	72	24,4	47	16,8
2.	Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi	102	33,7	123	44,3
3.	Kelajakdagagi faoliyat refleksiyasi	126	41,9	110	38,9
	Jami:	300	100	280	100

Endi, bevosita refleksiya darajalarining gender tafovutlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bunda 3 ta refleksiya darajalaridan yigitlarda “situativ refleksiya” 24,4 % ni, “retrospektiv refleksiya” 33,7 % ni, “perspektiv refleksiya” esa 41,9 %ni tashkil etdi. Ushbu metodika natijalari qizlarda quyidagicha namoyon etildi. Bunda, “situativ

refleksiya” 16,8 %, “retrospektiv refleksiya” 44,3 %, “perspektiv refleksiya” 38,9 % ga mansub ekanligi aniqlandi.

Ushbu tahlillar shuni angalatadiki, yigitlarda refleksiyaning eng yuqori ko‘rsatkichi 41,9 % ni (“perspektiv refleksiya”), eng past ko‘rsatkich esa 24,4 % (“vaziyatli refleksiya”) ko‘rsatgan bo‘lsa, qizlarda esa eng yuqori ko‘rsatkich 44,3 % (“retrospektiv refleksiya”), eng past ko‘rsatkich 16,8 % ni (“situativ refleksiya”) namoyon etdi. Bu shundan dalolat beradiki, yigitlarda qizlarga nisbatan kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalahtirish, faoliyat natijalari gipoteza qilish va boshqa shunga o‘xhash xususiyatlar ustunlik qilar ekan. Qizlarda esa yigitlarga nisbatan o‘tmishda sodir bo‘lgan hodisalarini tahlil qilish, bo‘lib o‘tgan voqealar tafsiloti, o‘tmishda qilingan xatolar va shunga o‘xhash xususiyatlar dominant ekanligi aniqlandi.

Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi komponenti bo‘yicha ikkala hudud talabalari natijalarida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($U=4194,5$; $p\leq 0,05$). Bundan ko‘rinadiki, 1-bosqich talabalarida sodir bo‘lgan voqealarni tahlil qilish, bo‘lib o‘tgan voqealar tafsiloti, o‘tmishda qilingan xatolar va shunga o‘xhash xususiyatlar dominant ekanligi aniqlandi. Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bo‘yicha 1-bosqich va 3-bosqich talabalar ko‘rsatkichlarida ahamiyatli farqlar namoyon bo‘ldi ($U=4402,0$; $p\leq 0,05$). Bundan ko‘rinadiki, 3-bosqich talabalarida real vaziyat haqida fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarining ortishi 1-kurs talabalaraga nisbatan ko‘proq uchraydi. Kelajakdagagi faoliyatni refleksiyasi komponenti bo‘yicha ikkala kurs talabalar natijalarida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($U=3548,5$; $p\leq 0,05$). Natijalardan ma’lumki, shaxsnинг kelgusidagi faoliyat rejalarini real va barqaror tuzishi, kelajakka intilishi 3-bosqich talabalariga qaraganda 1-bosqich talabalarida ko‘proq rivojlanganligini qayd etildi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalarda refleksiv qobiliyatlar ham gender hamda, kurslar kesimida ma’lum bir farqlar mavjud.

4-jadval

Talabalarda refleksiya darajalari namoyon bo‘lishining gender-qiyosiy ko‘rsatkichlari (n=580)

Omillar	kurs	Ranglar o‘rtachasi	Ranglar yig‘indisi	U (Mann-Uitni qiymati)	p (ishonch darajasi)
Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	1-kurs	94,12	10635,50	4194,5*	0,05
	3-kurs	117,81	11309,50		
Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi	1-kurs	114,04	12887,00	4402,0*	0,05
	3-kurs	94,35	9058,00		
Kelajakdagagi faoliyatni refleksiyasi	1-kurs	88,40	9989,50	4240,5*	0,05
	3-kurs	124,54	11955,50		

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Endi talabalar refleksiv qobiliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish metodikasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Talabalarda xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarining kurslar kesimida namoyon bo'lishi (n=580)

Omillar	1-kurs n ₁ =320	3-kurs n ₂ =260	p
	M	M	
Rejalashtirish	4,4	6,2	0,05
Modellashtirish	4,2	6,8	0,05
Dasturlashtirish	5,3	7,5	0,05
Natijalarni baholash	5,1	5,8	0,20
Moslashuvchanlik	5,1	6,7	0,05
Mustaqillik	5,2	7,4	0,05
O'zini - o'zi boshqarishning umumiy darajasi	22,4	26,8	0,05

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01.

Talabalarda xulq-atvorida o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarining kurslar kesimida namoyon bo'lishi yuzasida ilmiy tadqiqot natijalari quyida keltirilgan 3-jadvalda berilgan. Ushbu jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, xulq-atvorda o'zini-o'zi boshqarish xususiyatlari kurslar kesimida o'rganilganda, talabalarda rejallashtirish komponenti bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi ($t=2,5$; $p\leq0,05$). Bundan ma'lum bo'ladiki, shaxsda faoliyatni ongli ravishda rejallashtirish ko'nikmasining shakllanishi 3-bosqich talabalarida 1-bosqichlarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi.

Modellashtirish komponenti bo'yicha 1-bosqich va 3-bosqich talabalar ko'rsatkichlarida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($t=2,1$; $p\leq0,05$). Mazkur natijalar shuni anglatadiki, 3-bosqich talabalarida 1-bosqichlarga nisbatan hozirgi vaziyatda ham, uzoq kelajakda ham maqsadlarga erishish uchun muhim shart-sharoitlarni aniqlay olish qobiliyatining rivojlanishi yuqoriroq hisoblanadi.

"Dasturlashtirish" komponenti bo'yicha har ikkala bosqich talabalar natijalarida ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($t=2,1$; $p\leq0,05$). Natijalardan ma'lumki, shaxsning o'z xatti-harakatlari va xulq-atvor usullari ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun mosligi, faoliyat dasturlarining istiqbolini tahlil qilish xususiyatlari 3-bosqich talabalariga qaraganda 1-bosqich talabalarida ko'proq rivojlanganligi ma'lum bo'лади.

"Moslashuvchanlik" komponenti bo'yicha 1-bosqich va 3-bosqichda tahsil oluvchi talabalar ko'rsatkichlarida ahamiyatli farqlar qayd etildi ($t=2,2$; $p\leq0,05$). Bundan ko'rindaniki, o'zini o'zi boshqarishda moslashuvchanlikning shakllanish darajasi, ya'ni tashqi va ichki sharoitlar o'zgarganda o'z-o'zini boshqarish tizimini qayta qurish, tuzatishlar kiritish qobiliyatining ortishi 1-bosqich talabalarida 3-bosqich sinaluvchilarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi.

"Mustaqillik" komponenti bo'yicha ikkala kurs talabalar natijalarida ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($t=1,9$; $p\leq0,05$). Natijalardan ma'lum bo'ladiki, shaxsning o'z faoliyatini tashkil etishda avtonomlik, o'zining ish-harakat va xulq-atvorini mustaqil

ravishda rejalashtirish, faoliyatning oraliq va yakuniy natijalarini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati 1-bosqich talabalariga qaraganda 3-bosqich talabalarida ko‘proq rivojlanganligini ko‘rsatadi.

O‘zini o‘zi boshqarishning umumiy darajasi bo‘yicha 1-bosqich va 3-bosqich talabalari ko‘rsatkichlarida ahamiyatli farqlar qayd etildi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Bundan shuni anglash mumkinki, 1-bosqich talabalarida 3-bosqich talabalariga nisbatan o‘zini - o‘zi boshqarish, qaror qabul qilish va faoliyat yuritish xususiyati yuqoriroq darajada rivojlangan. Mazkur metodikani biz gender jihatlarini ham ko‘rib chiqdik (6-jadvalga qarang).

Talabalarda xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlarining gender farqlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, bunda “rejalashtirish” ($t=2,63$; $p\leq 0,05$), “moslashuvchanlik” ($t=2,01$; $p\leq 0,05$) hamda “mustaqillik” ($t=2,42$; $p\leq 0,05$), omillarida ishonchli farqlar aniqlandi. “Modellashtirish” ($t=0,63$; $p\leq 0,23$), “dasturlashtirish” ($t=0,43$; $p\leq 0,32$) “natijalarni baholash” ($t=0,73$; $p\leq 0,16$) hamda “o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy darajasi” ($t=1,09$; $p\leq 0,18$) omillarida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

6-jadval

Talabalarda xulq-atvorda o‘zini - o‘zi boshqarish xususiyatlarining gender farqlar kesimida namoyon bo‘lishi (n=580)

Omillar	Yigitlar $n_1=300$	Qizlar $n_2=280$	p
	M	M	
Rejalashtirish	5,3	6,7	0,05
Modellashtirish	6,1	5,7	0,23
Dasturlashtirish	6,1	5,9	0,32
Natijalarni baholash	4,9	5,3	0,16
Moslashuvchanlik	5,3	4,6	0,05
Mustaqillik	6,1	4,9	0,05
O‘zini - o‘zi boshqarishning umumiy darajasi	23,1	22,8	0,18

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

“Rejalashtirish” shaxsda faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish ko‘nikmasining shakllanishi qizlarda yigitlarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Demak, qizlar o‘quv faoliyati davomida iyerarxik va barqaror, faoliyat maqsadlari mustaqil ravishda ilgari surish, rejalarini real hamda batafsil ishlab chiqish xususiyatlari yuqoriligin anglatadi. Yigitlarda esa maqsadlar tez-tez o‘zgarib turishi va maqsadlari vaziyatga qarab o‘zgartirish xususiyatlari nisbatan kuchli ekanligini anglatadi.

“Moslashuvchanlik” omili esa yigitlarda o‘rtacha natijani qayd etdi. Demak, yigitlar qizlarga nisbatan tashqi va ichki sharoitlar o‘zgarganda o‘z-o‘zini boshqarish tizimini qayta qurish, tuzatishlar kiritish qobiliyati, turli xil ekstremal vaziyatlarda emotsional nazorat darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

“Mustaqillik” omilida ham yigitlar ustun bo‘lishdi. Bu esa yigitlarda o‘z faoliyatini tashkil etishdagi avtonomiya, faoliyat natijalarini tahlil qilish va adekvat baholash xususiyatlari yuqori ekanligini bildiradi. Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, mazkur natijalar talabalar refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotimiz davomida talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil ya'ni, axborotni qayta ishlash jarayonini boshqarishning psixik mexanizmlari ham tahlil qilindi. Chunki, talabalar o'quv faoliyati samaradorligi bevosita ularning o'quv faoliyatini o'rganish uslubiga bog'liqdir. Buning uchun P.Xoni va A.Mamfordlarning so'rovnomasidan foydalanildi.

Talabalarda faoliyat uslubi namoyon bo'lishining kurslar kesimidagi qiyosiy tahlili natijalarida barcha omillarda farqlar kuzatildi. Jumladan, "faol" ($t=1,99$; $p\leq 0,05$), "tahlilchi" ($t=1,97$; $p\leq 0,05$), "nazariyotchi" ($t=2,02$; $p\leq 0,05$) hamda "pragmatik" ($t=1,98$; $p\leq 0,05$) omillarida ishonchli farqlar kuzatildi.

Metodikamizning dastlabki "faollik" omili 1-bosqich talabalarida yuqori natijani ko'rsatdi. Mazkur omilga mansub shaxslar ta'sirchan, yangi taasurotlar qidirishga intiluvchi, shaxslararo munosabatlarda ekstrovert, o'quv faoliyatida g'ayratli, yangi narsalarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishadi. Bizningcha mazkur holat ularning oliy ta'lif dargohiga endi qadam qo'yganlklari hamda yangicha o'quv jarayoni, yangi muhit bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

7-jadval

**Talabalarda faoliyat uslubi namoyon bo'lishining kurslar kesimidagi
qiyoziy tahlili (n=580)**

Omillar	1-kurs n ₁ =320	3-kurs n ₂ =260	p
	M	M	
Faollik	6,1	4,7	0,05
Tahlilchi	6,1	7,3	0,05
Nazariyotchi	6,4	6,5	0,05
Pragmatik	7,1	6,1	0,05

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

"Tahlilchi" omilda 3-bosqich talabari yetakchilik qilishdi. Bunday talabalar ehtiyyotkor, vaziyatni obdon o'rganadigan, analiz sintez qiladigan, muammolarga turli xil nuqtadan qaray oladigan, mustaqil to'plagan va boshqalardan olingan ma'lumotlar ustida fikr-mulohaza yuritadigan bo'lishadi. Mazkur xususiyatlar ularning oliy ta'lif dargohida moslashish darajasi, ijtimoiy munosabatlardagi tajribalariga bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.

"Nazariyotchi" omili respondentlar guruvida farqlar aniqlanmadidi. Demak, har ikkala talabalar guruhi obyektiv fikrlaydigan, tajribalarni kuzatish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega, induktiv hamda deduktiv fikrlash layoqatiga ega ekanligini aniqlandi.

So'ngi omil "pragmatik" omili 1 bosqich talabalarida yuqori natijani qayd etdi. Mazkur talabalar, maqsadli, nazariy tahlillarni amaliy faoliyatga o'tkazadigan, qiziqqon, barcha narsa va hodisalarga o'z munosabatini bildiradigan hamda realist bo'lishadi. Ular uchun eng muhim faktor bu yuzaga keladigan yoki kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oson yo'lini izlab topishdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,

talabalardagi faoliyat uslubi namoyon bo‘lishi darajasi ularning bevosita refleksiv qobiliyatlar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Talabalardagi refleksiv qibiliyatlar va shu bilan bir qatorda shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash, maqsad, motivatsiya va istaklarni tushunish, qolaversa, hayotdagi amaliy vazifalarni hal etish uchun mazkur emotsiyalarni boshqarish qobiliyati ekanlididir. Aynan refleksiv qobiliyatlar bilan bog‘liq amaliy harakatlarni amalga oshirishda o‘zgalarning emotsiyal holatini tushunish va unga to‘g‘ri baho berish muhim deb hisobladik.

Mazkur metodikadan olingan natijalar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (8-jadval).

8-jadval

**Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish hamda refleksiya darajalari
namoyon bo‘lishi metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili
(n=580)**

Omillar	Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi	Kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi
Autorefleksiya	0,36*	0,51*	0,18
Sotsiorefleksiya	0,48*	0,20	0,15
Boshqalar bilan muloqot	0,39*	0,12	0,19
O‘zini - o‘zi boshqarish	0,41*	0,32*	0,49*

Metodika natijalariga ko‘ra, talabalar guruhida “autorefleksiya” va “ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi” bilan hamda “ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi” ($r=0,51$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi ($r=0,36$; $p\leq 0,05$). Har qanday inson hozirgi kundagi faoliyatidagi yutuq va muvaffaqiyatlariga o‘tmishdagi egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarisiz erisha olmaydi. Shu bois, hozirgi kundagi faoliyatlarimizda erishgan yutuqlarimizda o‘tmish tajribalarining o‘rni beqiyosdir. “Sotsiorefleksiya” omili “faoliyatning retrospektiv refleksiyasi” bilan aloqadorligi kuzatildi ($r=0,48$; $p\leq 0,05$). Bundan ko‘rinadiki, o‘tmishda amalga oshirilgan faoliyatlardagi natijalar shaxs tomonidan anglab yetilishi ulardagi hozirgi va kelajakdagi faoliyat maqsadiga muvofiq hamda oqilona tashkillashtirilishiga olib keladi.

“Boshqalar bilan muloqot” omilida “faoliyatning retrospektiv refleksiyasi” bilan ijobiy bog‘liqlik mavjudligi anqilandi ($r=0,39$; $p\leq 0,05$). Darhaqiqat inson faoliyati ham subyekt, ham obyekt sifatida gavdalanadi. Shu bois, har qanday kelajakdagi faolligi o‘tmish tajribalariga mos ravishda rejalshtiriladi hamda amalga oshiriladi. Shunday ekan, refleksianing mazkur yo‘nalishlari o‘rtasida aloqadorlik bo‘lishi tabiiy sanaladi.

“O‘zini o‘zi boshqarish” omilida “faoliyatning retrospektiv refleksiyasi” ($r=0,41$; $p\leq 0,05$), “ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi” ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) hamda kelajakdagi

faoliyat refleksiyasi ($r=0,49$; $p\leq 0,05$) bilan ijobjiy korrelyatsiyaga kirishganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan shuni anglash mumkinki, talabalardagi hozirgi, o‘tmishdagi va kelajakdagi faoliyatini boshqarish ustunligi, ulardagi o‘zini o‘zi tartibga solish, qaror qabul qilish va faoliyat yuritish xususiyati ish-harakatni rejallashtirish, xatti-harakatlar dasturini tuzish, natijalarni baholashning subyektiv mezonlari shakllanishi, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashib ketish, mustaqil fikrlash, tashqi va ichki muhim sharoitlar to‘g‘risidagi g‘oyalarning individual rivojlanishi kabi omillar ta’sirida taraqqiy etib boradi. Bu tahlillar talabalarda refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun individual refleksiyaning verbal va noverbal ekspressiyalarni anglash, ijtimoiy-pertseptsiya, empatiya, identifikatsiya xususiyatlarining shakllanganlik darajsiga bog‘liq ravishda ijtimoiy refleksiyaga uyg‘un holda namoyon bo‘lishi muhimligi tufayli kognitiv (o‘z-o‘zini tavsiflash), hissiy (o‘ziga emotsiunal munosabat), operativ (o‘z-o‘zini boshqarish) sohalariga korrektzion-adaptiv ta’sir etish zaruratini dalillashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, ko‘pincha shaxs kelajakdagi faoliyatga intilishi o‘zgalarning erishgan omad va muvaffaqiyatlarini tahlil qilishi asosida yuz beradi. Shu nuqtai nazardan olganda, insonlar kasbiy faoliyatlarini oldindan ko‘ra olishi hamda rivojlantirishi, tahlil qilishida boshqalarning obrazni ahamiyatli hisoblanadi

9-jadval

Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish hamda xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=580)

Omillar	Autorefleksiya	Sotsiorefleksiya	Boshqalar bilan muloqot	O‘zini -o‘zi boshqarish
Rejallashtirish	0,46*	0,12	0,12	0,14
Modellashtirish	0,15	0,19	0,28*	0,30*
Dasturlashtirish	0,13	0,09	0,08	0,11
Natijalarni baholash	0,14	0,10	0,12	0,42*
Moslashuvchanlik	0,13	0,52*	0,59*	0,05
Mustaqillik	0,41*	0,10	0,12	0,17
O‘zini - o‘zi boshqarishning umumiy darajasi	0,01	0,11	0,16	0,14

Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish hamda xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlandi. “Autorefleksiya” omili “rejallashtirish” ($r=0,46$; $p\leq 0,05$) va “mustaqillik” ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) bilan ijobjiy korrelyatsiyaga kirishdi. Bundan ko‘rinadiki, talabalardagi autorefleksiya ya’ni o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini anglash funksiyalari shaxsning faoliyatni ongli ravishda rejallashtirish ko‘nikmasining shakllanishi ularda o‘z xatti-harakatlari dasturini tuzish, mustaqil qaror qabul qilish, xususiyatlarning tarkib topishiga sabab bo‘ladi.

“Sotsiorefleksiya” omilining “moslashuvchanlik” ($r=0,52$; $p\leq 0,05$) bilan ijobjiy bog‘liqligi aniqlandi. “Boshqalar bilan muloqot” omili “modellashtirish” ($r=0,28$; $p\leq 0,05$) va “moslashuvchanlik” ($r=0,59$; $p\leq 0,05$) bilan ijobjiy bog‘liqligi aniqlandi.

Bundan ko‘rinadiki, boshqalar bilan muloqot qilish omili bevosita shaxs kelgusida amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzish, aniq yo‘nalishlarni belgilash, mustaqil faoliyatni yo‘lga qo‘ya olish, shaxslararo munosabatlarni adekvat idrok qilish darajalarining ham ortishiga sabab bo‘ladi.

So‘nggi omil “o‘zini o‘zi boshqarish” “modellashtirish” ($r=0,30$; $p\leq 0,05$) hamda “natijalarni baholash” ($r=0,28$; $p\leq 0,05$) va “moslashuvchanlik” ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlandi. Natijalardan ma’lum bo‘ladiki, shaxsning o‘z faoliyatini tashkil etishda avtonomlik, o‘zining ish-harakat va xulq-atvorini mustaqil ravishda rejalshtirish, faoliyatning oraliq va yakuniy natijalarini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati undagi rejali faoliyat yuritish, moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi to‘g‘ri yo‘naltira olish, aniq va tizimli ishslash bilan bevosita ijobiy bog‘liqlikni tashkil etadi. Shuningdek, oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun zarur ishlarni tashkil etish, uning bajarilishini nazorat qilish xususiyatining rivojlanishi muhim ichki va tashqi shart-sharoitlarni noto‘g‘ri baholashga olib keladi.

10-jadval

Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish hamda faoliyat uslubi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=580)

Omillar	Autorefleksiya	Sotsiorefleksiya	Boshqalar bilan muloqot	O‘zini o‘zi boshqarish
Faollik	0,14	0,19	0,53*	0,17
Tahlilchi	0,52*	0,09	-0,45*	0,14
Nazariyotchi	0,39*	0,10	0,10	0,41*
Pragmatik	0,09	0,34*	0,11	0,14

Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish hamda faoliyat uslubi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlandi. “Autorefleksiya” omili “tahlilchi” ($r=0,52$; $p\leq 0,05$) va “nazariyotchi” ($r=0,39$; $p\leq 0,05$) bilan “sotsiorefleksiya” omili “pragmatik” ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) bilan “o‘zini o‘zi boshqarish” omili “nazariyotchi” ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) ijobiy, “boshqalar bilan muloqot” omili “tahlilchi” ($r=-0,45$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy korrelyatsiyaga kirishdi.

Talabalarda autorefleksiya ya’ni, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini anglash funksiyalarini ustunligi ulardagi turli xil vaziyatlarni har tomonlama tahlil qilish, atrof-muhitda bo‘layotgan voqeа va hodisalar ustida fikr mulohoza yuritish hamda kuzatish orqali tarqoq faktlarni tizimga solish xususiyatlari yuqori bo‘lishini ta’minlar ekan.

“Sotsiorefleksiya” omili yuqori bo‘lgan talabalarda o‘quv faoliyatdagi amaliy jihatlar, eng samarali yo‘llarni izlab topish, shaxslararo munosabatlarda ochiqlik, bunday talabalar muammolarga nazariy jihatdan emas, balki amaliy ravishda yondashish usullari dominantlik qiladi.

“O‘zini o‘zi boshqarish”ning talabalarda ustunlik qilishi ulardagi berilgan topshiriqni mavhum jihatlarini aniqlashtirish, uni mantiqiy tizimga solishga urinish, ishga puxta tayyorgarlik ko‘rish, qarorni ehtiyyotkorlik bilan, bir nechta muqobil variantlarni taroziga solgandan so‘ng chiqarish xususiyatlarining yuqori bo‘lishini ta’minlar ekan.

“Boshqalar bilan muloqot” omilida yaxshi rivojlangan talabalar ta’sirchan, yangi

taasurotlar qidirishga intiluvchi ekstravert, har qanday faoliyatga tez va to‘la kirishib ketish, boshqalarga xayrihoh va g‘ayratli, muloqotga kirishish omillari ham ustun bo‘lar ekan. Bundan tashqari bunday talabalarda ehtiyotkorlik, vaziyatlari aniq tahlil qilish, qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik kabi xususiyatlar o‘rta darajada shakllanganligi aniqlandi.

O‘tkazilgan tajribamizda talabalarning refleksiv xususiyatlari xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, axborotlarni qayta ishlash hamda qaror qabul qilishdagi mustaqillikka maqsadga yo‘naltirilgan faollik, muloqotchanlik xususiyatlarini autotreninglar yordamida rivojlantirish orqali erishish natijasida bilish faoliyatidagi refleksivlikni kuchaytirish mumkinligi isbotlandi.

11-jadval

Talabalik davrida xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish va refleksivlik xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlik (umumiyl natijalari) (n=580)

Refleksivlik yo‘nalishlari	Rejalashtirish	Modelllashtirish	Dasturlashtirish	Natijalarni baholash	Egiluvchanlik	Mustaqillik	O‘zini o‘zi boshqarish darjasni	O‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati
Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	0,05	0,09	0,05	0,14*	0,04	-0,001	0,13*	0,17*
Ayni vaqt dagi faoliyat refleksiyasi	-0,09	0,22**	-0,20**	0,24**	-0,11	-0,18**	-0,06	-0,06
Kelajakdagagi faoliyat refleksiyasi	0,26**	-0,10	0,21*	-0,06	0,27**	0,25**	0,25* *	0,18**
Muloqot va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sir refleksiyasi	0,11	-0,008	0,12	0,06	0,17*	0,03	0,08	0,26**

Metodika natijalariga ko‘ra, faoliyatning retrospektiv refleksiyasi natijalarni baholash ($r=0,14$; $p\leq 0,05$), o‘zini o‘zi boshqarish darjasni ($r=0,13$; $p\leq 0,05$), o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati ($r=0,17$; $p\leq 0,05$) bilan aloqadorlik holatlari kuzatildi. Mazkur ko‘rsatkichlardan ma’lumki, shaxsda sodir bo‘lgan voqeal-hodisalarga nisbatan diqqatning qaratilishi faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, muayyan jarayonlarda idora qilish sifatlarining shakllanishiga olib keladi.

Ayni vaqt dagi faoliyat refleksiyasi modelllashtirish ($r=0,22$; $p\leq 0,01$), natijalarni baholash ($r=0,24$; $p\leq 0,01$) bilan ijobiy, dasturlashtirish ($r=-0,20$; $p\leq 0,01$) mustaqillik ($r=-0,18$; $p\leq 0,01$) bilan o‘zaro manfiy bog‘liqlik namoyon bo‘ldi. Bundan ko‘rinadiki, shaxsda real vaziyat haqida fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarining ortishi kelgusi ishlarning modelini tuzish, natijalarni baholash xususiyatlarining ham ortishiga sabab

bo‘ladi. Shuningdek, buning ta’sirida xulq-atvor ko‘rinishlarini dasturlashtirish, mustaqillik kabi omillarning susayishi kuzatiladi.

Kelajakdagagi faoliyat refleksiyasi rejalarashtirish ($r=0,26$; $p\leq 0,01$), dasturlashtirish ($r=0,21$; $p\leq 0,05$), egiluvchanlik ($r=0,27$; $p\leq 0,01$), mustaqillik ($r=0,25$; $p\leq 0,01$), o‘zini o‘zi boshqarish darajasi ($r=0,25$; $p\leq 0,01$), o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati ($r=0,18$; $p\leq 0,01$) bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Natijalardan ma’lumki, shaxsning kelgusidagi faoliyat rejalarini real va barqaror tuzishi, keljakka intilishi ularda o‘z xatti-harakatlarini rejalarashtirish, shunga mos dasturni tuzish, turli o‘zgaruvchan sharoitlarlarga nisbatan egiluvchanlik, mustaqil qaror qabul qilish, o‘zini o‘zi tartibga solish kabi xususiyatlarning tarkib topishiga sabab bo‘ladi.

Muloqot va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sir refleksiyasida egiluvchanlik ($r=0,17$; $r\leq 0,05$), o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati ($r=0,26$; $p\leq 0,01$) bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi qayd etildi. Ko‘rsatkichlardan shuni anglash mumkinki, talabalardagi o‘zgalar bilan muloqot jarayonida o‘z holati va fikrlarini tahlil qilish ko‘nikmasining rivojlanishiga murakkab vaziyatlarga moslashib ketish, o‘zini o‘zi idora qilish xususiyatlari o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, tadqiqotda talabalarning refleksiv qobiliyatlarini subyektiv lokus nazorat, shaxsning o‘z-xulq-atvorini boshqarish, talabaning faoliyat uslubini o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liqligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda refleksivlik qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlari**» deb nomlangan to‘rtinchchi bobida talabalarda refleksiv qibiliyatlarni rivojlatirishning nazariy konseptual asoslari hamda talabalarda refleksiv qibiliyatlarni rivojlantiruvchi dasturning samaradorlik darajasining ilmiy uslubiy asoslari va tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.


Tadqiqotimiz davomida talabalarning refleksiv qobiliyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

1) kognitiv (o‘z-o‘zini tavsiflash) - talabaning nazariy - uslubiy, psixologik-pedagogik bilimlar asosida jarayonni loyihalash, tashkil etish va boshqarishga tayyorligini anglashi, kasbiy-pedagogik usullar, vositalar va texnologiyalarni o‘zlashtirishi; konstruktiv muloqotni loyihalashtirish va tashkil etishga tayyorlik; o‘z kasbiy pozitsiyasini tashkil etishi;

2) hissiy emotsional (o‘ziga munosabat) – talaba uchun faoliyat subyekti sifatida muhim bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni (ijodkorlik, xushmuomalalik, tashkilotchilik) baholash asosida o‘qituvchi sifatida o‘z-o‘zini samaradorligini va o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlash; shaxslararo munosabatlar (o‘z maqsadlari va harakatlarini boshqalarning maqsadlari va harakatlari bilan bog‘lash qobiliyati, hamkorlikning umumiyl pozitsiyasini rivojlantirish, boshqalar bilan gumanistik muloqot munosabatlarini o‘rnatish); kasbiy munosabat va operatsion-faoliyat xususiyatlari, kasbiy munosabatlar va operatsion-faoliyat xususiyatlari (tezkor va uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash, o‘z kasbiy faoliyatini loyihalash, talabalari monitoringni amalga oshirish, motivatsion sharoitlarni yaratish va boshqalar);

3) operativ (o‘zini o‘zi boshqarish) - kasbiy vaziyatlarda o‘zini o‘zi anglash va tushunish, o‘z shaxsiy psixologik xususiyatlarini va faoliyat maqsadlarini hisobga

olgan holda kasbiy faoliyatning individual uslubini rivojlantirish asosida o‘zini o‘zi boshqarish.



1-rasm. Talabalarning refleksiv qobliyatini rivojlantirish modeli

Shaxsda refleksivlikni rivojlantirish muammosini ko‘rib chiqish orqali, uni integrativ reallik sifatida qabul qilish lozim. Ushbu reallik bir vaqtning o‘zida ham psixik jarayon, holat sifatida namoyon bo‘ladi, biroq ularning hech biriga taalluqli emas. Bu shunday qobiliyatki, bunda shaxs o‘zini tasavvur qilayotib o‘z “Men”ini

atrofdan ajrata oladi, natijada o‘z dunyoqarashini yarata oladi, o‘z subyektini anglash predmetiga aylantira oladi, tushunadi, eng asosiysi esa uni amaliy qayta ishslash mumkin bo‘lgan predmet sifatida ko‘ra oladi. Psixik xossa sifatida refleksivlik subyekt xususiyati sifatida namoyon bo‘lib, o‘z individual o‘lchoviga egadir. Dastlab, talabalarda refleksiya darajalari namoyon bo‘lishi metodikasi orqali olingan eksperimentdan oldin hamda keyingi natijalar tahlili amalga oshirildi (12-jadvalga qarang).

12-jadval

Talabalar refleksiv qobiliyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi orqali tajriba va nazorat guruhlardagi olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=580)

Respondentlar	Omillar	Eksperiment-dan oldingi ko‘rsatkichlar		Eksperimentdan keyingi ko‘rsatkichlar		Tafovutning statistik ahamiyati	
		M1	S1	M2	S2	t	p
Tajriba guruhi n1=270	Autorefleksiya	2,1	1,1	4,2	3,3	2,3	0,05
	Sotsiorefleksiya	2,2	1,6	3,9	3,1	2,6	0,05
	Boshqalar bilan muloqot	2,9	2,1	4,1	3,2	2,1	0,05
	O‘zini o‘zi boshqarish	2,6	1,7	4,2	3,3	1,9	0,05
Nazorat guruhi n2=310	Autorefleksiya	2,3	1,2	2,4	1,2	0,5	0,19
	Sotsiorefleksiya	2,4	1,7	2,5	1,8	0,8	0,64
	Boshqalar bilan muloqot	3,1	2,2	3,3	2,3	0,4	0,23
	O‘zini o‘zi boshqarish	2,8	1,7	2,9	1,6	0,3	0,25

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, talabalar guruhida amaliy mashg‘ulotlar samarador bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Natijalardan shuni aytish mumkinki, shaxs hayoti, faoliyatidagi muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizligi intilishlar darajasi aksariyat hollarda o‘ziga bog‘liq ekanligi asoslanildi.

So‘rovnomamizning dastlabki “autorefleksiya” omilida ishonchli farqlar kuzatildi. Talabalik darvriga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlaridan biri o‘z-o‘zini anglashdir. Talabalik davrida shaxs taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, hayotiy rejalar tuzish, kelajak rejalarini ishlab chiqish hisoblanadi. G.Sh.Gabdreeva fikricha, talabalar psixik faoliyati ularning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlari orqali rivojlanadi. Demak, talabalar refleksiv qobiliyatini rivojlantirishda autorefleksiya omili muhim o‘rin tutadi.

Sotsiorefleksiya omilida ham ishonchli farqlar qayd qilindi. Nazariy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalardagi sotsiorefleksiya omili empatiyaviy xususiyatlar bilan bog‘liqdir. Chunki, talabalarda ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish, boshqa insonlarni tushunish, ularning emotsiyalarini tahlil qilish, xayriyohlik bildirish kabi sifatlarni rivojlanishi ularning o‘quv faoliyati davomida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qiladi.

Boshqalar bilan muloqot omili talabalar refleksiv xususiyatlari uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Sababi, ular boshqa kishilar bilan muloqot va faoliyat natijasida

o‘zining yangi obrazlarini tuzish, xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etish hamda dunyo haqida adekvat bilimlarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi “o‘zini o‘zi boshqarish” omilida ham ishonchli farqlar mavjud ekanligi isbotlandi. Talabalarda mazkur xususiyatning shakllanishi, ulardagi o‘zini o‘zi tahlil qilish, qobiliyat va qiziqishlarini anglash, o‘zini ijtimoiy rolini aniqlab olishda muhim rol o‘ynaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali, ularni o‘z-o‘zini idora qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqillik, o‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi va o‘z- o‘zini qabul qilish, o‘z ustida ishlash faoliyatini oshirish mumkin ekan.

XULOSA

Talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan psixologik izlanishlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lindi.

1. Refleksiya tushunchasi fanlararo kategoriya sifatida falsafiy jihatdan shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, fikrlash qobiliyati ongli faoliyatining natijasi sifatida ko‘rsatiladi, pedagogikada inson xatti-harakati, xulq-atvorida o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi nazorat qilish hamda amalga oshirilgan faoliyat natijalarini o‘tmish tajribalariga tayanilgan holda tahlil qilish nuqtai nazaridan asoslaniladi, psixologik jihatdan o‘zini o‘zi bilish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi baholash, o‘ziga va boshqa insonlarga munosabatda “Men” siyosining taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

2. Sharqning qomusiy olimlari, xorij va o‘zbek psixologlar tomonidan refleksivlik shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi boshqarishi, o‘zini o‘zi baholashi, o‘zini o‘zi bilishi, tushunishi kabi jarayonlarning taraqqiy etishi bilan bog‘liqligi empirik izlanishlar asosida ochib berilgan.

3. Refleksiv qobiliyatlar intellektual soha bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shaxsdagi o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi refleksiya va intellektning o‘zaro integrasiyasini asosida xulqda namoyon bo‘lishi aniqlangan. Diqqat jarayonining rivojlanishi shaxsdagi o‘z-o‘ziga yo‘nalganlik bilan bog‘liq. Shuningdek, tafakkur turlari va refleksiv yo‘nalishlari o‘rtasidagi bog‘liqliqka ko‘ra, mazkur ikkita hodisa o‘rtasida qarama-qarshi munosabat mavjudligi nazariy manbalar asosida aniqlangan.

4. Individual refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi intellektual operasiyalarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, refleksivlik shaxs xususiyati sifatida intellektual faoliyat refleksiyasi bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liqlikka ega ekanligi tahlil qilindi hamda talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun individual refleksiyaning verbal va noverbal ekspressiyalarni anglash, ijtimoiy-pertseptsiya, empatiya, identifikatsiya xususiyatlarining shakllanganlik darajsiga bog‘liq ravishda ijtimoiy refleksiyaga uyg‘un holda namoyon bo‘lishi muhimligi tufayli kognitiv (o‘z-o‘zini tavsiflash), hissiy (o‘ziga emotSIONAL munosabat), operativ (o‘z-o‘zini boshqarish) sohalariga korrektcion-adaptiv ta’sir etish zarurati dalillandi.

5. Talabalardagi refleksiv qobiliyatilarni namoyon bo‘lishi dinamik xarakterga ega bo‘lib, boshqalar bilan muloqot hamda o‘z-o‘zini boshqarishning refleksiv jihatlari ustuvor ekanligi hamda yigitlarda boshqalar bilan muloqot, qiz bolalarda esa autorefleksiyaning o‘ziga xos jihatlari kuzatilgan. Talabalardagi refleksiv

qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslararo muloqot, o‘z-o‘zini boshqarishning refleksiv jihatlari hamda yigitlarda kommunikativ, qiz bolalarda esa autorefleksiyaning ustuvorligi tufayli kasbiy shakllanish bilan bog‘liq dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillandi.

6. Talabalarning refleksivlik qobiliyatini rivojlanishi auto va sotsiorefleksiya, boshqalar bilan muloqot hamda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatlarini metokognitiv mexanizm sifatida differentsial namoyon bo‘lishi sababli o‘quv faoliyati bilan bog‘liq retrospektiv, real, prospektiv refleksiyaning darajaviy ifodalanishiga integrativ kechishi aniqlandi.

7. Talabalardagi refleksiv qobiliyatlar xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyati bilan uyg‘un holda rivojlanib, autorefleksiya rejalashtirish, mustaqillik, sotsiarefleksiya moslashuvchanlik, boshqalar bilan muloqot modellashtirish, moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarish modellashtirish, natijalarni baholash xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi dalillandi.

8. Talabalardagi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi autorefleksiyaning rejalashtirish, mustaqillik, sotsiorefleksiyaning moslashuvchanlik, boshqalar bilan muloqotning modellashtirish, moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarishning modellashtirish, natijalarni baholash sifatlarini iroda kuchining sub’ektiv lokolizatsiyasi ta’sirida ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli shaxs xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatining shakllanishiga identiv ekanligi asoslandi.

9. Talabalarning faoliyat uslubidan faollik boshqalar bilan muloqot, tahlilchi autorefleksiya, nazariyotchi autorefleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish, pragmatik tip sotsiorefleksiya bilan integrativ namoyon bo‘lishi hamda refleksivlik xususiyatlar xulq-atvorda o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatining komponentlari bilan interkorrelyatsiyasiga ega ekanligi aniqlangan.

10. Shaxsning emotsiyal holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish imkoniyatlarini kuchaytirish bevosita individual-psixologik xususiyatlarning hamda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi ko‘pgina omillarga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan quyidagi masalalarni kelajakda tadqiq etish maqsadga muvofiq: refleksiv qobiliyatlarning metokognitiv mexanizm sifatida kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishi; refleksiv qobiliyatlarning emotsiyal intellekt bilan bog‘liqlik jihatlari; pedagoglarda refleksiv qobiliyatlarni ish stajiga bog‘liq ravishda rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar; refleksiv qobiliyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.

Tadqiqot natijalari va ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi **amaliy tavsiyalarni** taklif etish imkonini beradi:

1. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining refleksiv qobiliyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik qo‘llanma va psixologik yo‘riqnomalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini kengaytirish lozim;

2. Oilaviy munosabatlarda ota-onalar farzandlariga o‘zini anglashi, o‘zini tahlil qilish, turli vaziyatlarni idrok qilishga o‘rgatish orqali ulardagagi refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishi lozim.

3. Talabalarning hissiy-irodaviy sifatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va shu asosda ta’lim tarbiya tizimini takomillashtirish zarur.

4. Talaba shaxsidagi ijtimoiy kutilmalar bilan bog‘liq xavotirlanish holatlarining

ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘z vaqtida psixoprofilaktik ishlarni olib borish kerak.

5. Faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish yetarli darajada rivojlanmagan talabalarni muntazam ravishda psixotrening mashg‘ulotlariga jalb qilib borish lozim.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ PhD 03/30.12.2021.P.26.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МУХТАРОВА АЗИЗА ЭРКИНОВНА

**ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ
РЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ**

19.00.06 – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ
НАУК (DSc)**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2023.4.DSc/P165 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdpu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Абдуллаева Барно Сайфутдиновна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Умаров Бахриддин Мингбаевич
доктор педагогических наук, профессор

Жураев Бахром
доктор педагогических наук, доцент

Кабулов Косимбой Пиржанович
доктор педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

**Бухарский государственный
университет**

Защита диссертации состоится в _____ часов “____” _____ 2024 года на заседании Научного совета PhD03/30.12.2021.P.26.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном педагогическом университете. (Адрес: 100185, г.Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор дом 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51 e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована под №______). Адрес: Адрес: 100011, г.Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор дом 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (+99871) 276-82-32)

Автореферат диссертации разослан “____” _____ 2024 года
(протокол реестра под номером _____ от «____» _____ 2024 года)

Ф.А.Акрамова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор психологических наук (DSc),
профессор

Н.Б.Атабаева
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор психологических наук (DSc),
доцент

З.Т.Нишанова
Председатель научного семинара при
Ученом совете, доктор
психологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире все более актуальными становятся такие проблемы, как синтез всего многообразия процессов познавательной, регулятивной и коммуникативной природы отражения как психических процессов, неспособность человека полностью понять себя и внешний мир, отсутствие у него места в жизни общества, его отчуждение от общества. В связи с этим в исследованиях, проведенных в Соединенных Штатах Америки определено, что что нарушения самоотношения людей, отсутствие самоконтроля и самоуправления, резкий рост суициального поведения среди молодежи, агрессивности в межличностных отношениях, негативные изменения в психике человека, резкое снижение эффективности труда связаны с недостаточно развитой рефлексивностью человека⁸. Подобные негативные тенденции делают проблему развития рефлексивности более актуальной в обеспечении психологического развития личности и создают потребность в эмпирических исследованиях в целях развития.

